

# **O‘zbekiston Respublikasi Banklararo pul bozorining “UZONIA” indeksini (Uzbek Overnight Index Average – o‘rtacha overnayt indeks) hisoblash va e‘lon qilish METODOLOGIYASI**

Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o‘rinlarda – Markaziy bank) tomonidan banklararo pul bozorida amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalari va indekslarni hisoblash va e‘lon qilish tartib qoidalarini o‘zida aks ettiradi.

“UZONIA”ni hisoblash tartibi Pul bozori ishchi guruhi yig‘ilishlarida tijorat banklari ishtirokida muhokama qilinib, kelishilgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu ko‘rsatkich tijorat banklari uchun milliy valyutada o‘zaro depozit va kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun kredit, likvidlik va boshqa xatarlar minimal bo‘lgan overnayt foiz stavkasini ifoda etadi.

## **I. Asosiy tushunchalar**

1. Ushbu metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**“UZONIA”** (Uzbek Overnight Index Average) – foiz ko‘rsatkichi bo‘lib, ta‘minlanmagan banklararo pul bozorida tijorat banklari o‘rtasida milliy valyutada overnayt shartlarda amalga oshirilgan depozit operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi ko‘rinishida hisoblanadi;

**“UZONIA” indeksi** – 1 so‘mlik birlik uchun dastlabki kundan boshlab har bir kunlik “UZONIA” stavkalarini kapitalizatsiya qilish orqali hisoblangan ko‘rsatkich;

**Muddatli “UZONIA”** – foiz ko‘rsatkichi bo‘lib, pul mablag‘larining ma‘lum muddat uchun “UZONIA” foiz stavkasi bo‘yicha daromadlilikini o‘zida ifoda etadi;

**Pul bozori ishchi guruhi** – pul bozorini yanada takomillashtirish bo‘yicha Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda tashkil etilgan hamda Markaziy bank va barcha tijorat banklari vakillarini o‘z ichiga oladigan ishchi guruh.

## II. “UZONIA” foiz ko‘rsatkichi va indeksini hisoblash tartibi

2. “UZONIA” foiz stavkasi Banklararo pul bozorida kun davomida amalga oshirilgan “80 foizlik qirqilgan” overnayt depozit operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi ko‘rinishida hisoblanadi. Pul bozoridagi amaliyotlar sifatida O‘zbekiston respublika valyuta birjasidagi “Banklararo pul bozoridagi elektron savdo platformasi”da tijorat banklari o‘rtasida amalga oshirilgan overnayt depozit operatsiyalari olinadi.

3. “UZONIA” foiz stavkasini hisoblash bazasiga kiritiladigan har bir individual operatsiyalar yoki kun davomidagi umumiy operatsiyalar hajmiga nisbatan hech qanday cheklovlar qo‘llanilmaydi.

4. “UZONIA” foiz stavkasini hisoblashda:

a) banklararo pul bozorida kun davomida amalga oshirilgan barcha overnayt depozit operatsiyalarning nominal foiz stavkasi bo‘yicha eng pastdan o‘svuvchi ketma-ketlikda joylashtiriladi;

b) nominal foiz stavkasi bir xil bo‘lgan operatsiyalar hajmlari umumiyashtiriladi va operatsiyalar soniga ko‘paytiriladi;

d) eng yuqori va eng past foiz stavkada amalga oshirilgan 10 foizlik operatsiyalar hisoblash bazasidan chiqariladi;

e) “UZONIA” foiz stavkasi qolgan operatsiyalarning o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi sifatida quyidagicha hisoblanadi:

$$UZONIA = \sum_{i=0}^n \frac{(R_i * V_i)}{V}$$

Bunda:

$R_i$  – nominal foiz stavkasi;

$V_i$  – nominal foiz stavkada amalga oshirilgan overnayt operatsiyalar hajmi;

$V$  – hisoblash bazasidagi barcha operatsiyalar hajmi.

5. Tijorat banklari tomonidan foydalanishda qulay bo'lishi uchun Markaziy bank tomonidan "UZONIA" foiz stavkasidan tashqari muddatli "UZONIA" foiz stavkalari ham e'lon qilib boriladi.

Dastlabki davrda 7, 30, 90 va 180 kunlik muddatli "UZONIA" foiz stavkalari e'lon qilinishi yo'lga qo'yiladi va keyinchalik bozor ishtirokchilarining talabi asosida ushbu muddatli foiz stavkalari qatori o'zgartirilishi mumkin.

Muddatli "UZONIA" foiz stavkalari quyidagi formula asosida har bir kalendar kun uchun "UZONIA" stavkalarining (so'nggi 7, 30, 90 yoki 180 kalendar kun uchun) kapitalizatsiya qilingan ko'paytmasi ko'rinishida hisoblanadi. Bunda bank ish kuni bo'lmagan kalendar kunlari uchun "UZONIA" stavkasi sifatida so'nggi bank ish kunidagi ko'rsatkichdan foydalaniladi:

$$\mathbf{N\text{-}kunlik\ UZONIA\ foiz\ stavkasi} = \left[ \prod_{i=1}^d \left( 1 + \frac{UZONIA_i * n_i}{365} \right) - 1 \right] * \frac{365}{T}$$

Bunda:

**"UZONIA"<sub>i</sub>** – i bank ish kuni uchun hisoblangan "UZONIA" foiz stavkasi;

**n<sub>i</sub>** - "UZONIA"i amalda bo'lgan kalendar kunlar soni (odatda 1 kun, hafta oxirida 3 kun va bayram kunlarida turlicha bo'lishi mumkin);

**d** – davr ichidagi bank ish kunlari soni;

**T** – muddat davomidagi kalendar kunlar soni (7, 30, 90 yoki 180 kun).

6. "UZONIA" foiz stavkasini hisoblash uchun bank ish kuni davomida pul bozorida kamida 2 ta overnayt depozit operatsiyasining amalga oshirilishi zarur hisoblanadi.

Agar banklararo pul bozorida 2 tadan kam overnayt depozit operatsiyalari amalga oshirilsa yoki umuman amalga oshirilmasa, "UZONIA" foiz stavkasi so'nggi 5 bank ish kunidagi "UZONIA" stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan o'rtacha tafovutidan foydalangan holda, quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$UZONIA_t = p_t + \frac{\sum_{i=t-5}^{t-1} (UZONIA_i - p_i)}{5}$$

Bunda:

**"UZONIA"<sub>i</sub>** – i bank ish kuni uchun hisoblangan "UZONIA" foiz stavkasi;

$p_i$  – Markaziy bank asosiy stavkasi;

7. “UZONIA” indeksini hisoblashning dastlabki kuni sifatida 2022 yilning 5 yanvar sanasi (yilning dastlabki bank ish kuni) belgilanadi. “UZONIA” indeksining qiymati ushbu sanada 100 ga teng hisoblanadi. Indeksning keyingi qiymatlari har bir kalendar kun uchun quyidagi formula asosida hisoblab boriladi:

$$UZONIA \text{ indeks}_t = UZONIA \text{ indeks}_{t-1} * \left( 1 + \frac{UZONIA_i * n_i}{365} \right)$$

Bunda:

$t$  - “UZONIA” indeksi hisoblanayotgan kalendar kuni;

“UZONIA” *индекс* <sub>$t-1$</sub>  – so‘nggi bank ish kundagi “UZONIA” indeksi ko‘rsatkichi;

$n_i$  - “UZONIA”i amalda bo‘lgan kalendar kunlar soni (odatda 1 kun, hafta oxirida 3 kun va bayram kunlarida turlicha bo‘lishi mumkin);

“UZONIA” <sub>$i$</sub>  – so‘nggi bank ish kuni uchun hisoblangan “UZONIA” foiz stavkasi.

8. Istalgan davr uchun muddatli “UZONIA” stavkasini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Muddatli UZONIA_{davr} = \left[ \frac{UZONIA \text{ indeks}_{davr \text{ oxiri}}}{UZONIA \text{ indeks}_{davr \text{ boshi}}} - 1 \right] * \frac{365}{T}$$

$T$  – davr davomidagi kalendar kunlar soni.

### III. “UZONIA” foiz stavkalari va indeksining e‘lon qilinishi

9. “UZONIA” foiz stavkalari va “UZONIA” indeksi har bir bank ish kuni uchun bank ish kuni yakunlanganidan so‘ng Markaziy bank tomonidan hisoblanib, keyingi kuni soat 10:00 gacha Markaziy bankning rasmiy veb-sayti, telegram kanali va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e‘lon qilinadi.

10. “UZONIA” foiz stavkalari va “UZONIA” indeksi hisob-kitoblarda aniqlik va qulaylikni oshirish maqsadida Telegram kanalida verguldan keyin 4 ta raqam aniqlikda va Markaziy bankning veb-saytida verguldan keyin 8 ta raqam aniqlikda e’lon qilinadi. Overnayt va muddatli “UZONIA” foiz stavkalari yillik foiz stavka ko’rinishida e’lon qilinadi.

11. Mazkur ko’rsatkichlar rasman e’lon qilinganidan keyin haqiqiy hisoblanadi hamda o’zgartirish va (yoki) tuzatish kiritishga yo’l qo’yilmaydi. Agar hisob-kitob jarayonida yo’l qo’yilgan xatolik

0,05 foiz banddan yuqori bo’lsa, Markaziy bank tomonidan “tuzatilgan” “UZONIA” foiz stavkalari va indeksi e’lon qilingan ish kuni davomida qaytadan e’lon qilinadi.

12. Monetar operatsiyalar departamenti “UZONIA” foiz stavkalari va “UZONIA” indeksining hisoblanishi va e’lon qilishini uchun mas’ul hisoblanadi. Shuningdek, Departament zaruratdan kelib chiqib Refinitiv, Bloomberg yoki boshqa xorijiy statistik-axborot platformalarida e’lon qilib borilishini ta’minlaydi.

#### **IV. Mazkur metodologiyaga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish tartibi**

13. “UZONIA” foiz stavkasi tijorat banklari uchun milliy valyutada o’zaro depozit va kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun kredit, likvidlik va boshqa xatarlar minimal bo’lgan overnayt foiz stavkasini o’zida aks ettirishini ta’minlash maqsadida Markaziy bank pul bozoridagi o’zgarishlar va foydalanuvchilar manfaatini to’g’ri aks ettirish nuqtai nazaridan ushbu metodologiyani doimiy ravishda va kamida yilda 1 marotaba qayta ko’rib chiqadi.

Bunda, kiritilishi lozim bo’lgan o’zgartirishlar va qo’shimchalar Pul bozori ishchi guruhida tijorat banklari ishtirokida atroflicha muhokama etiladi va muhokama natijalari Markaziy bankning Kredit qo’mitasiga kiritiladi.

14. Mazkur Metodologiyaga kiritiladigan o’zgarishlar Markaziy bank boshqaruv qarorida belgilangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.